



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## CHEMISTRY IN ORGANIZATION “O‘YIN” METODIKASI

**Safarov Bobomurod Salohiddinovich**

*Filologiya va tillarni o‘qitish: Ingliz tili*

*SamDCHTI 2324-guruhi*

*Tel: +998994282618*

*Mail: [bobomurodsafarov412@gmail.com](mailto:bobomurodsafarov412@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Hozirgi davrda chet tillarini mukammal o‘rganishga bo‘lgan talab ortib borayotganligi sababli, zamonaviy til o‘rgatish metodikalariga ehtiyoj kuchaymoqda. Ushbu maqolada samarali usullardan biri bo‘lgan “o‘yin orqali o‘rganish” metodikasi batassil ko‘rib chiqiladi. Mazkur metodikaning chet tili ta’limida tutgan o‘rni, boshqa usullardan farqli jihatlari, afzallikkali va amaliyotdagagi natijalari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** chet tili, hamkorlik, faol ishtirok, raqobat, leksika boyitish, maxsus o‘yinlar, zamonaviy texnologiyalar.

### Kirish

Bugungi kunda chet tillarini o‘rganishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bu nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki o‘quvchilar va talabalar uchun professional o‘sishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, xorijda o‘qish yoki ishlashni istaganlar uchun ham chet tilini bilish zarur bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ingliz tili, xitoy tili, fransuz va boshqa tillar jadal o‘qitilmoqda. Ammo bu tillarni o‘zlashtirish ko‘p vaqt talab qiladi. Ko‘pchilik uchun bu jarayon qiyin va zerikarli bo‘lishi mumkin. Shu sababli, yangi metodikalarning ahamiyati katta. “O‘yin orqali o‘rganish” metodikasi shunday innovatsion yondashuvlardan biri bo‘lib, uning natijadorligi ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalarda o‘z isbotini topgan.

“O‘yin” metodikasining afzallikkali

Hamkorlikni rivojlantirish. Ko‘plab o‘yinlar jamoa bo‘lib ishlashni talab qiladi. Guruhli o‘yinlar davomida talabalar birgalikda harakat qilishni, fikr almashishni va natijaga erishishni o‘rganishadi. Bu jarayon nafaqat chet tilini o‘rganishni, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Jamoaviy faoliyat ishtirokchilar o‘rtasida hamjihatlikni kuchaytiradi.

Faol ishtirokni ta’minalash. “O‘yin” metodikasi asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda barcha o‘quvchilar faol ishtirok etishadi. Bu ularning darsga qiziqishini oshiradi va charchash, zerikish kabi holatlarni kamaytiradi. Faol qatnashuv dars jarayonining samaradorligini oshiradi.

Raqobat muhiti yaratish. G‘alaba qozonish istagi ishtirokchilar orasida sog‘lom raqobatni shakllantiradi. Raqobat jarayonida talabalar bilim va ko‘nikmalarini oshirishga intilishadi. Bu ularning motivatsiyasini kuchaytirib, o‘quv jarayonini jonlantiradi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



So‘z boyligini oshirish. So‘z o‘yinlari davomida ishtirokchilar ko‘plab yangi so‘zlarni o‘zlashtirishadi. Masalan, “Last Man Standing” kabi o‘yinlarda ishtirokchilar yangi so‘zlarni o‘zaro muhokama qilish orqali yodlab olishadi. Shu tariqa, leksik zaxira boyitiladi.

Zamonaviy texnologiyalarning roli. Zamonaviy o‘yin platformalari (masalan, “Kahoot”) talabalar uchun qiziqarli va innovatsion o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi. Bunday o‘yinlar o‘quv jarayonini texnologik yondashuvlar bilan boyitadi.

Amaliyat va natijalar. Tadqiqot doirasida 20 nafar talabalar bilan bir qancha o‘yinlar tashkil etildi. Ishtirokchilar guruhlarga bo‘linib, “So‘z o‘yini”, “Letter Scramble” va “Kahoot” o‘yinlarini o‘ynashdi. Har bir o‘yin davomida ishtirokchilar o‘rtasida faol muloqot, yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va sog‘lom raqobat muhitini kuzatildi.

O’tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar:

- So‘zlearning 85 foizini yod oldilar.
- Hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdi.
- Tilni o‘rganishga nisbatan qiziqishlari oshdi.
- Raqobat muhitida o‘zlarini namoyon etish imkoniga ega bo‘lishdi.

Tajribada “Kahoot” o‘yini ham sinab ko‘rildi. Unda 17 nafar ishtirokchi qatnashdi. O‘yin 20 ta test savolidan iborat bo‘lib, har bir qatnashchi test jarayonida kerakli bilimlarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Natijada barcha talabalar nafaqat o‘yin davomida zavq olishdi, balki o‘z bilimlarini boyitdilar.

Eng samarali o‘yinlar turlari

### 1. Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam)

Bu o‘yinda ishtirokchilar birgalikda doira shaklida tizilib, koptok uzatishadi. Har bir qatnashchi yangi so‘z aytishi kerak. Yangi so‘z topa olmagan ishtirokchi o‘yindan chiqadi.

### 2. Letter Scramble (Tartibsiz harflar)

Tartibsiz berilgan harflardan yangi so‘zlar tuzish kerak bo‘ladi. Bu o‘yin tez fikrlash va lug‘at boyligini rivojlantiradi.

### 3. What Am I Thinking Of? (Men nima haqida o‘ylayapman?)

Juftliklarda o’tkaziladi. Har bir juftlik o‘z varoqlariga biror buyumni tasvirlab yozadi. Eng tez javob topgan juftlik g‘olib bo‘ladi.

### 4. Kahoot

“Kahoot.it” platformasi orqali test o‘yinlari o‘tkaziladi. Talabalar berilgan savollarga raqobat asosida javob berishadi. Testda yuqori natija ko‘rsatgan ishtirokchi g‘olib bo‘ladi.

Zamonaviy texnologiyalar roli

O‘yin metodikasi zamonaviy texnologiyalar yordamida yanada samarali amalga oshiriladi. Elektron doskalar, kompyuterlar va smartfonlar o‘yin jarayonini boyitadi. Xususan, “Kahoot” yoki “Quizlet” kabi platformalar orqali talabalarga interaktiv vazifalar taqdim etiladi.

Xulosa. “O‘yin orqali o‘rganish” metodikasi chet tillarini o‘rganishni yanada samarali, qiziqarli va sifatlari qiladi. Ushbu usul yordamida:





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- O‘quvchilar qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumot o‘zlashtirishadi.
- Lug‘at boyligini oshirish qiyinchiliksiz amalga oshiriladi.
- Darslar jarayonida o‘quvchilarda zerikish kuzatilmaydi.

Mazkur metodika zamonaviy ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilmoqda va o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Kelajakda bu metodikaning yanada takomillashishi chet tillarni o‘rganishni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Hasanboy Rasulov. \*Ingliz tili darslarida qiziqarli o‘yinlar.

URL: [<https://hasanboy.uz>](<https://hasanboy.uz>)

- Pedagoglar.org. \*Til o‘qitishda o‘yin metodidan foydalanish. URL: [<https://pedagoglar.org/01/article/download/5579/5045/9934>](<https://pedagoglar.org/01/article/download/5579/5045/9934>)

- Cyberleninka.ru. \*Til o‘qitishda o‘yin metodidan foydalanish. URL: [<https://cyberleninka.ru/article/n/til-o-qitishda-o-yin-metodidan-foydalanish-viewer>](<https://cyberleninka.ru/article/n/til-o-qitishda-o-yin-metodidan-foydalanish-viewer>)

